

MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODINING O'ZBEK MILLIY ADABIYOTIDAGI TUTGAN O'RNI

Tilavbayeva Osiyobegim Bekpulatovna,
assistant

Sirojiddinov Bobur Qamariddin o'g'li
AB-11 guruhi talabasi

Annotatsiya: Yaqin tariximizda o'tgan shunday inson borki, o'zga yurt vakili bo'lishiga qarmay, bir yilgina Toshkentda yashagandan keyin, o'zbek tilini o'rganib oladi va oddiy maktabda ustozlik qiladi. Shugina emas, u keyinchalik O'rta Osiyo davlat universitetining sharqshunoslik fakultetiga o'qishga kiradi. Bu yillar o'zbek tili jozibasini chuqurroq anglashiga va tilni yanada mukammal o'rganishiga zamin yaratdi. Yillar o'tib esa, o'zbekning klassik shoirlaridan biri bo'lib yetishadi. Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodining o'zbek milliy adabiyotidagi tutgan o'rni haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ijodkor, adabiyotshunos, zamonaviy adabiyotchi, tur, janrlar, she'riy to'plamlar, ocherklar, tarjima kitoblar.

Ozarbayjon naslidan bo'lib, keyinchalik o'zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Maqsud Shayxzoda 1908 yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug'ilgan. Otasi Ma'sumbek elu-yurtda katta obro'ga ega shifokor edi. Eng e'tiborli jihatni, u o'zi ozarbayjon millatiga mansub bo'lsa-da, o'zbek tilida ijod qilib, shu til rivojiga hissa qo'shgan. O'zini Ozarbayjon va O'zbekiston farzandi deb his qilish baxti, ikki el nazariga ham tushishdek ulkan sharaf uningga peshonasiga yozilgan bo'lsa kerak. Ha, bu siz va biz yoshligimizdan adabiyot orqali yaxshi tanigan «Jaloliddin Manguberdi» dramasi, «Mirzo Ulugbek» tragediyasi, «Toshkentnoma» dostoni muallifi Maqsud Shayxzodadir. Ozarbayjonlik jurnalist Gulu Kengerlining «Unutilmagan o'tmish tarixga aylanadi» kitobida yozilishicha, Maqsud ota-onasining to'ng'ich farzandi bo'lган. Oilasida undan so'ng yana to'rt farzand dunyoga kelgan. Otasi Masim ota adabiyot va she'riyatga nihoyatda qiziqadigan inson bo'lib, kasbi shifokor bo'lган. Shayxzodaga adabiyotga qiziqish ham otasidan o'tgan. U 12 yoshidanoq o'z ijodini boshlagan. Ilk saboqni Oqtoshdagagi "Rushdiya" mifik tabida olgan. Mifik tabida u o'z she'rlarini o'qib, ustozlari va kelgan mehmonlarning e'tiboriga tushadi. Hattoki, she'rlari gazetalarda ham chop etilib, mifik tab direktori uning ota-onasini chaqirib, Maqsudning yanada kengroq ta'lim

olishi uchun Bokuga yuborishni maslahat beradi. Keyinchalik u Bokudagi pedagogika institutiga o‘qishga kiradi. Bu yerda kengroq adabiy muhit ta’sirida bo‘ladi, o‘z davrining ziylolaridan saboq oladi. Oliygohda sirtdan tahsil olgani bois, Darband shahrida muallimlik qilib, muntazam ziyoli insonlar bilan muloqotda bo‘ladi va sovet mafkurasining chirkinligini anglab yetadi. Unga qarshi kurashadi. Maqsud Shayxzoda san’at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqgan. Maqsud Shayxzoda Oqtoshdagi ibridoiy maktabni bitirgach, 1921 yili Boku dorilmuallikka o‘qishga kiradi va uni tugatgach Dog‘istonning Darband, Bo‘ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. U 1926 yili Adhem Fayziy tashkilotiga a’zo etilgan «Milliy firqa» tashkilotiga a’zo bo‘lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928 yili hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Albatta, sho‘ro hukumati Shayxzodani O‘zbekistonda ham ta’qiblar va tahqirlardan benasib qoldirgani yo‘q. Shayxzoda Toshkentga kelgach, avval Narimonov nomidagi texnikumda dars beradi, keyin “Sharq haqiqati”, “Qizil O‘zbekiston”, “Yosh leninchi” gazetalarida ishlaydi. Maqsud Shayxzoda ijodiy balog‘atidan dalolat beruvchi asarlaridan biri “Toshkentnomा” dostonidir. Adabiy jamoatchilik o‘z vaqtida bu dostonni shoirning adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, “Toshkentnomা” Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli bo‘lib, unda shoir shaxsiyatining o‘ziga xos qirralari ancha yorqin namoyon bo‘lgan.

Dostondagi o‘ziga xoslik shundaki, asar yaxlit voqeа asosiga qurilgan emas. Shayxzoda ko‘p qirrali iste’dod sohibi bo‘lgan. U she’rlar va dostonlar bilan birga, juda yuksak badiiy quvvatga ega bo‘lgan dramalar ham yaratadi. Shayxzoda umrining so‘ngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagan “Beruniy” dramasini hisobga olmaganda ham, uning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib qoldi. Shayxzoda ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan “Jaloliddin Manguberdi” (1944) tragediyasida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan. Oybek bilan G‘afur G‘ulom o‘sha vaqtda asarga yuqori baho berishib: “Tarixiy jarayonning haqiqiy mazmunini, uning ichki ma’nosini” ochib bergen deyishgan edi.

Bundan tashqari, u”Shirin bilan Shakar” dostonining bir xususiyatini alohida uqtirib o‘tadi: "... qo‘limizdagi bu doston ma’lum bir afsonaviy assadir. Haqiqatan ham bu dostonda tarixchietnograf uchun o‘rganishga sazovor birmuncha ma’rifiy va etnografik ma’lumotlar topish mumkin. Bu dostonni o‘qish bilan o‘quvchi ham

eskiurushlarning texnikasini, urush oldidan o‘zbeklarda polvonlarning chiqib bahslashuvlarini, urushda yengilgan lashkarlarning bizning zamonamizda bo‘lganiday, qilichlarni taslim qilmasdan, balki o‘z bo‘yinlariga olganlarini, ko‘pkari-ulоq chopishning kelib chiqqanligi feodallardagi jazolash usullarini / jallodlar gunohkorlar qo‘lini oldiga bog‘lagandan haqidagi materiallarni, burungi keyingi o‘zining mutlaqo o‘lajagini bilar va yana birmuncha an’analarni, qiziq ilmiy ham ruhiy xususiyatlarini tekshirib borishi mumkindir. Zotan, yaxshi, go‘zal, badiiy bir doston boshqacha turli bo‘lmaydi. U qancha xayoliy, afsonaviy bo‘lmasin, mutlaqo ma’lum tarixiy bir davrning real chiziqlarini o‘ziga singdirib olishi tabiiydir". Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi asarlari tildan-tilga, avloddan-avlodga o‘tib keladi. Natijada bu asarlar turli o‘zgarishlarga uchraydi, ma’lum tarixiy sharoitgagina xos bo‘lgan ayrim o‘rinlari tushib qoladi, yangi voqeа va qarashlar kirib keladi. Binobarin, ayrim xalq og‘zaki ijodi asarlarida, ayniqsa, doston va ertaklarda, turli tarixiy sharoitga oid voqealar, urf-odatlar, fikr va qarashlar aks etganini ko‘ramiz "Alpomish" ham shunday asralardan biridir. Ham mazmuni, ham shakli jihatidan xalqchil bo‘lgan "Alpomish" o‘zida xalqning og‘zaki poeziyasidagi she’riy qoidalarni, shakllarni, usullarni o‘ziga xos ravishda o‘zlashtirib olganini ko‘ramiz. Shuning uchun ham adabiyot tarixi bilan qiziquvchi tadqiqotchi bu ulkan badiiy meros xususida ma’lum tasavvur va xulosalarga kelmay turib, adabiy jarayon, shakl va usullarning, obraz badiiyatining taraqqiyoti to‘g‘risida chuqr fikrmulohaza yuritishi amri maholdir.

Maqsud Shayxzoda 1956-yilda "Alpomish" dostonidagi ba’zi bir poetik xususiyatlar haqida tadqiqot olib borar ekan, bu dostonning vazni, badiiyati, g‘oyaviy-badiiy xususiyati, mazmuni, obrazlar olami xususida keng ma’lumot beradi. Jumladan, "Alpomish" dostonining ritmik negizi sillabik sistema ("hijo vazni yoxud barmoq vazni") ekanligi, bu vazn turkiy tillarda so‘zlovchi barcha xalqlarning og‘zaki poeziyasiga xos bir vazn bo‘lib kelganligini aytib o‘tadi. Bundan tashqari, Maqsud Shayxzoda dostondagi uchraydigan poetik xususiyatlar: saj’, qofiya, radif kabilarga alohida to‘xtaladi. Olim: "Dostonda qofiyaga rioya qilish va unga moyillik shu qadar zo‘rki, hatto she’rlar o‘rtasiga kiritilgan she’riy parchalar ham qofiyalangan", - deb misol tariqasida shu parchani keltiradi: "Barchinoyni otdan tushirib yotgan, besh yuz sepini ortgan, qirqin kanizlar Barchinni baxmal uyga olib ketgan, toza liboslarni bu uyga solib yetgan, hammasi choydish-qumg‘onni qaynatgan hokazo..." Bu she’r emas, nasr (prozadir). Ammo qofiyalangan nasrdirkı, buni mumtoz adabiyotda saj’ deb ataladi. Demak, bu usul ham xalq poeziyasida chuqr ildizlarga ega.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Maqsud Shayxzoda Ozbarbayjon va O`zbek xalq adabiyotining eng zabardast shoir va adiblaridan hisoblanadi. Mana necha yildirki ijodiy asarlari so`ngan emas va qalbimizning tub tubidan joy olgan. 1-prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan Maqsud Shayxzoda nomiga medal, order, va stipendiyalar joriy etilgan . Uning asarlari va hayotiga qiziquvchi yoshlarimiz juda ko`p va bundan keyin ham kamaymaydi . Maqsud Shayxzodaning ijodi shu qadar qiziqliki u faqat bir yo`nalishda emas balki turli xil yo`nalishlarda juda qiziq faoliyat ko`rsatgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Maqsud Shayxzoda serqirra ijodkor kitobi
2. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.
3. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972 y. - 179 b.
4. G`afurov I., O`rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y. - 215 b.